# PUDRAT SHARTNOMASI

**290-1-28-OB/2022-son**

7«10»2022 yil.

Andijon viloyat Shahrixon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi boshqarma boshlig'i Abdumuminov Abdusamat bir tomondan OOO SHUXTRANS SERVIS MCHJ (keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladi) nomidan nizom asosida harakat qiluvchi korxona raxbari Ismonaliyev Qobuljon Kamilovich ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

## 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o'z tavakkalchiligiga asoslangan va o'zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig'iga asosan Shahrixon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko`chasini joriy ta`mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi.

## 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi 132074946 (Bir yuz o`ttiz ikki million etmish to`rt ming to`qqiz qirq olti) so'mni tashkil etadi.

2.2. Shartnoma bahosi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

2.3. Shartnoma bahosi taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog'liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

## 3. TO'LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: oldindan 30 foiz 39.622.483,80 (O`ttiz to`qqiz million olti yuz yigirma ikki ming to`rt yuz sakson uch ming) so`m 80-tiyyin o`tkazib beriladi qolgan 70 foiz to`lov 92.452.462.20 (To`qson ikki million to`rt yuz ellik ikki ming to`rt yuz oltmish ikki) so`m 20-tiyyin to`liq ishlar bajarilgandan so`ng o`tkazib beriladi.

3.2. To'lov shakli: to`lov topshiriqnomasi orqali

3.3. Shartnoma bo'yicha so'nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so'ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda 30 kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

## 4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan tanlov elonlari natijasi bo`yicha aniqlangan qurilish ishlarini oldindan to'lov amalga oshirilgandan so'ng 3 kun ichida ishlarni boshlaydi va ishlar boshlangnan kundan etiboran 20-kun ichida to`liq bajaradi.

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'laydi: 15 bank ish kunida

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati: 2022 yil 31 dekabrgacha

## 5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiyatlari:

o'z kuchi va mablag'lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjatlariga mos keladigan holatda ishlarni topshirish;

loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish;

o'z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan barcha muvaqqat binolarni qurish;

ushbu shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish;

qurilish maydonchasida texnika va yong'in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo'riqlanishi bo'yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta'minlash;

qurilish obyektlarining sug'urta qilinishini ta'minlash;

qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan keyin I.oyu 10 kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o'ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatlari:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish;

shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to'lash;

Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektni qabul qilib olish.

## 6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Bajarilgan ishlarhaqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

6.2. Ishlar muddatida bajarilmagan hollarda, pudratchi buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.3. Mazkur shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar tugallangandan so'ng o'ziga tegishli materiallarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo'shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to'lashni to'xtatib turishga haqli.

## 7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi

taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzluksiz __oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi: "SHUXTRANS SERVIS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Manzil:Qo`rg`ontepa tumani Qorasuv Shaxri A.Temur ko`chasi 101-uy
Hisob-kitob raqami
20208000704809746001
STIR 303140002949 MFO:01037

Kompaniya Raxbari: Q.Ismonaliyev

Buyurtmachi: Shahrixon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
Manzil:Namozgox MFY mo`sa jalil ko`chasi. 11 UY
Hisob-kitob raqami
10002286003207045200311004
STIR 204604616 MFO 00014

Tashkilot raxbari: A.Abdumo`minov

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

| | |
|---|---|
| Imzolovchi F.I.SH. | ABDUSAMAT ABDUMUMINOV ABDUMAJITOVICH |
| Imzolangan sana | 7 окт 2022 08:59 |
| Hujjat kodi | **MU7534584304** |
| Hulosa kodi | **HI3553114254** |

V.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: HI3553114254

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

**№MU7534584304**

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma.

2. **Loyihaning nomi:** Pudrat shartnoma.

Shahrixon tumani obodonlashtirish boshqarmasi va «Shuxtrans servis» MChJ o’rtasidagi, Andijon viloyati Shahrixon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko’chasini joriy ta’mirlash ishlarini bajarish haqida shartnoma loyihasi.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Shartnoma loyihasi Shahrixon tumani obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan, 04.10.2022 yilda markazga kelib tushgan.

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni imzolash maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuruskonsulti: R.Mirzayev
06.10.2022 yil.

# Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 143951 на приобретение Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko`chasini joriy ta`mirlash

Способ проведения электронный

Дата 29.09.2022

Время рассмотрения 29.09.2022 15:42

Закупочная комиссия Ободонлаштириш булими, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | AXMADALIYEV SARVAR NIZOMJONOVICH | Boshmuxandis | Obodonlashtirish boshqarmasi |
| **Секретарь комиссии** | RUSTAMOV ULUGBEK KAMOLDINOVICH | Obiektlarni saqlash bo`limi bosh Mutaxasis | Шахрихон туман Ободонлаштириш бошкармаси |
| **Член комиссии** | ERGASHOV SANJARBEK TAYMASOVICH | Brigadir | Shahrixon Tuman Obobdonlashtirish boshqarmasi |
| **Член комиссии** | ERGASHEV IBRAGIMJON SOTVOLDIYEVICH | Bo`lim boshlig`i | Shaxrihon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi |
| **Член комиссии** | NORMATOV MULAJON MAMATXONOVICH | Omborchi | Obodonlashtirish boshqarmasi |
| **Член комиссии** | JO'RAYEV OBBOSXON ZAFARDINOVICH | Mutaxasis | Obodonlashtirish |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 29.09.2022 года № лота 143951.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 70

Предмет закупки:

| | |
|---|---|
| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по текущему ремонту автомобильных дорог** |
| Подробное описание | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko`chasini joriy ta`mirlash |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 135 022 000.00 |
| Стартовая сумма | 135 022 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Guvohnoma

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 5 | Guvohnoma | 5 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF STROY** | 5 | 10 | 5 | Экспертная | | |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 5 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 5 | Экспертная | | |

Критерий №2 Ishchi hodimlari bo'yicha ma'lumot. Qurilish sohasida 3 yildan kam bo'lmagan 1-rahbar va 4 nafar malakali mutaxassislar bo'lishi shart

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 20 | Ishchi hodimlari bo'yicha ma'lumot. Qurilish sohasida 3 yildan kam bo'lmagan 1-rahbar va 4 nafar malakali mutaxassislar bo'lishi shart | 15 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF STROY** | 20 | 10 | 13 | Экспертная | | |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 20 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 15 | Экспертная | | |

Критерий №3 Ob'ektni o'rganganlik to'g'risida ma'lumot (ob'ektni chizmasi, foto rasmlar) tashkilot muhri bilan tasdiqlangan holda.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 5 | Ob'ektni o'rganganlik to'g'risida ma'lumot (ob'ektni chizmasi, foto rasmlar) tashkilot muhri bilan tasdiqlangan holda. | 4 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF STROY** | 5 | 10 | 3 | Экспертная | | |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 5 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 4 | Экспертная | | |

Критерий №4 Bank, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumot

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 15 | Bank, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi yo'qligi to'g'risida ma'lumot | 12 | Экспертная | | |
| OOO AND SOF STROY | 15 | 10 | 12 | Экспертная | | |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 15 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 12 | Экспертная | | |

Критерий №5 Mashina mexanizmlar va boshqa texnikalari to'g'risida ma'lumot.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 20 | Mashina mexanizmlar va boshqa texnikalari to'g'risida ma'lumot. | 15 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF STROY** | 20 | 10 | 12 | Экспертная | | |
| OOO SHUXTRANS SERVIS | 20 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 15 | Экспертная | | |

Критерий №6 Buyurtmachi bilan qatnashchi o'rtasida xech qanday korrupsiya holatlari yuzaga kelmasligi bo'yicha qatnashchi tomonidan kafolat xati

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Shahrixon tuman yo'llardan *foydalanish UK* | 5 | Buyurtmachi bilan qatnashchi o'rtasida xech qanday korrupsiya holatlari yuzaga kelmasligi bo'yicha qatnashchi tomonidan kafolat xati | 4 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF** | [illegible] | 10 | 5 | Экспертная | | |

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO SHUXTRANS SERVIS | 5 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 5 | Экспертная | | |

Критерий №7 Qatnashchi 3-yillik moliyaviy holati to'g'risida soliq idoralariga yuborilgan hisobot 1-shakl xisoboti balans xisoboti bilan 2-shakl xisoboti moliyaviy natija bilan Asosiy vositalar harakati debitor kreditor hisoboti

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK | 15 | Qatnashchi 3-yillik moliyaviy holati to'g'risida soliq idoralariga yuborilgan hisobot 1-shakl xisoboti balans xisoboti bilan 2-shakl xisoboti moliyaviy natija bilan Asosiy vositalar harakati debitor kreditor hisoboti | 9 | Экспертная | | |
| OOO AND SOF STROY | 15 | 10 | 9 | Экспертная | | |
| OOO SHUXTRANS SERVIS | 15 | Andijon Vileyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 10 | Экспертная | | |

Критерий №8 Pudratchi tashkilot subpudratchi yollash bo'yicha ma'lumot.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK | 10 | Pudratchi tashkilot subpudratchi yollash bo'yicha ma'lumot. | 9 | Экспертная | | |
| OOO AND SOF STROY | 10 | 10 | 9 | Экспертная | | |
| OOO SHUXTRANS SERVIS | 10 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko'chasini joriy ta'mirlash | 10 | Экспертная | | |

Критерий №9 Qatnashchi ob'ektni yutib olgandan so'ng taklif etilgan muddatda ob'ektni to'liq va kechiktirmasdan bajarish bo'yicha kafolat xati.

Тип: Текстовое значение

Описание:

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 5 | Qatnashchi ob'ektni yutib olgandan so'ng taklif etilgan muddatda ob'ektni to'liq va kechiktirmasdan bajarish bo'yicha kafolat xati. | 3 | Экспертная | | |
| **OOO AND SOF STROY** | 5 | 10 | 3 | Экспертная | | |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 5 | Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko`chasini joriy ta`mirlash | 5 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK | 135 022 000.00 | 133 022 000.00 UZS | 133 022 000.00 | 00.00 | 133 022 000.00 | 13.09.2022 10:10:26 | 19.84634 |
| **OOO AND SOF STROY** | 135 022 000.00 | 132 000 000.00 UZS | 132 000 000.00 | 00.00 | 132 000 000.00 | 15.09.2022 16:45:24 | 20 |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 135 022 000.00 | 132 074 946.00 UZS | 132 074 946.00 | 00.00 | 132 074 946.00 | 27.09.2022 16:04:41 | 19.98865 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK** | 60.8 | 19.84634 | 80.64634 |
| **OOO AND SOF STROY** | 56.8 | 20 | 76.8 |
| **OOO SHUXTRANS SERVIS** | 64.8 | 19.98865 | 84.78865 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 143951 от 29.09.2022 года на приобретение Andijon Viloyati Shaxrihon tumani Andijonlik MFY T.Jalolov ko`chasini joriy ta`mirlash определила победителем:

OOO SHUXTRANS SERVIS
301371227

и резервный исполнитель: Shahrixon tuman yo'llardan foydalanish UK (200292828)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| Председатель комиссии | AXMADALIYEV SARVAR NIZOMJONOVICH | Согласен | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Член комиссии | ERGASHOV SANJARBEK TAYMASOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | NORMATOV MULAJON MAMATXONOVICH | Согласен | |
| Член комиссии | JO'RAYEV OBBOSXON ZAFARDINOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП